

MENEJERLIK KURSLARIDA MAKTAB DIREKTORLARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Djalolov Nozimjon Valeriyevich

Oriental universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada menejerlik o‘quv kurslari jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar tizimi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Tadqiqot andragogik, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, kontekstual va refleksiv yondashuvlar integratsiyasiga tayangan. Tizimli va qiyosiy tahlil natijasida yettita o‘zaro bog‘langan pedagogik shart ajratildi: boshlang‘ich diagnostika va individual rivojlanish maqsadini belgilash; media mazmunini ta’lim menejmenti vazifalariga integratsiya qilish; real boshqaruv vaziyatlariga asoslangan faol ta’limni tashkil etish; xavfsiz, etik va funksional raqamli muhit yaratish; mentorlik va professional hamjamiyatni shakllantirish; refleksiv baholash va elektron portfolio orqali rivojlanish dinamikasini kuzatish; kurs natijasini maktab amaliyotiga ko‘chirishni ta’minlovchi transfer hamda tashkiliy qo‘llab-quvvatlash. Ushbu shartlarning alohida tadbirlar emas, balki yagona pedagogik tizim sifatida ishlashi direktorning media va axborotni boshqaruv qaroriga aylantirish, jamoatchilik bilan mas’uliyatli kommunikatsiya olib borish va maktabning xavfsiz media muhitini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishi asoslandi.

Kalit so‘zlar: mediakompetentlik, maktab direktori, menejerlik kursi, pedagogik shart-sharoit, andragogika, media keys, mentorlik, elektron portfolio, transfer, raqamli liderlik.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING SCHOOL PRINCIPALS’ MEDIA COMPETENCE IN MANAGEMENT TRAINING COURSES

Abstract: The article theoretically substantiates a system of pedagogical conditions for developing the media competence of general secondary school principals in management training courses. The study integrates andragogical, competency-based, activity-oriented, contextual and reflective approaches. Systematic and comparative analysis identified seven interrelated conditions: entry diagnostics and an individual development goal; integration of media content with educational management tasks; practice-based learning through authentic managerial situations; a safe, ethical and functional digital learning environment; mentoring and a professional learning community; reflective assessment and an electronic portfolio; and workplace transfer supported by organizational arrangements. The findings show that these conditions should operate as a coherent pedagogical system rather than as isolated course activities. Their integration helps transform media and information skills into managerial action, responsible stakeholder communication and sustainable school-level media practices.

Keywords: *media competence, school principal, management training, pedagogical conditions, andragogy, media case, mentoring, e-portfolio, workplace transfer, digital leadership.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ ДИРЕКТОРОВ ШКОЛ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ НА МЕНЕДЖЕРСКИХ КУРСАХ

Аннотация: *В статье теоретически обоснована система педагогических условий развития медиакомпетентности директоров общеобразовательных школ в процессе обучения на менеджерских курсах. Исследование опирается на интеграцию андрагогического, компетентностного, деятельностного, контекстного и рефлексивного подходов. На основе системного и сравнительного анализа выделены семь взаимосвязанных условий: входная диагностика и индивидуальная цель развития; интеграция медиасодержания с задачами управления образованием; практико-ориентированное обучение на основе реальных управленческих ситуаций; безопасная, этичная и функциональная цифровая среда; наставничество и профессиональное сообщество; рефлексивное оценивание и электронное портфолио; перенос результатов курса в школьную практику при организационной поддержке. Обосновано, что устойчивый результат достигается при функционировании указанных условий как единой педагогической системы.*

Ключевые слова: *медиакомпетентность, директор школы, менеджерские курсы, педагогические условия, андрагогика, медиа-кейс, наставничество, электронное портфолио, трансфер, цифровое лидерство.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Raqamli axborot oqimlarining jadallashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikriga ta'siri, maktab boshqaruvida elektron platformalar va sun'iy intellekt vositalarining kengayishi direktorning kasbiy vazifalarini sezilarli darajada murakkablashtirmoqda. Zamonaviy rahbar axborotni topish yoki texnik vositadan foydalanish bilangina cheklanmay, manbaning ishonchliligini tekshirishi, fakt va fikrni farqlashi, media xabarining ehtimoliy ta'sirini baholashi, shaxsiy ma'lumot va mualliflik huquqini himoya qilishi, turli auditoriyalar bilan strategik kommunikatsiyani tashkil etishi hamda inqirozli vaziyatlarda maktab nomidan asosli axborot qarorini qabul qilishi kerak. Shu sababli mediakompetentlik maktab direktori uchun yordamchi AKT ko'nikmasi emas, ta'lim menejmentining kesishuvchi boshqaruv kompetensiyasi sifatida qaraladi [2; 3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda 681-son qarori davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida tayyorlash va ularga menejerlik sertifikatini berishning institutsional asoslarini belgiladi [1]. Mazkur kurslar ta'lim menejmenti, strategik rejalashtirish, jamoa bilan ishlash, kommunikatsiya va raqamli boshqaruv kompetensiyalarini yagona o'quv makonida rivojlantirish imkonini beradi. Biroq mediakompetentlik kurs dasturiga alohida

nazariy mavzu sifatida qo‘shilsa, uning real boshqaruv amaliyotiga ko‘chishi avtomatik ta‘minlanmaydi. Shuning uchun natijaga ta‘sir qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida operatsionlashtirish muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi menejerlik kurslari jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni tizimlashtirish, ularning funksional aloqalarini asoslash va kurs amaliyotida kuzatiladigan natijalar bilan bog‘lashdan iborat. Tadqiqot savoli quyidagicha ifodalandi: qaysi pedagogik shartlar media va axborotga oid bilimlarning direktorning real boshqaruv faoliyatiga, institutsional media amaliyotiga va kursdan keyingi barqaror o‘zgarishga ko‘chishini ta‘minlaydi?

MATERIALLAR VA METODLAR (MATERIALS AND METHODS)

Maqola nazariy-konseptual xarakterga ega. Tadqiqot bazasini direktorlarni menejerlik kurslarida tayyorlashga doir milliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, media va axborot savodxonligi, raqamli ta‘lim ekotizimi, maktab liderligi, rahbarlarning kasbiy rivojlanishi hamda mediakompetentlikka oid mahalliy va xorijiy ilmiy ishlar tashkil etdi. Materiallarni tanlashda manbaning maktab rahbari faoliyatiga, kattalar ta‘limiga, kompetensiyaviy rivojlanish va ish joyiga transfer masalalariga aloqadorligi mezon sifatida olindi [2–6; 8–13].

Tahlilda tizimli yondashuv pedagogik shartlarni o‘zaro aloqadagi komponentlar sifatida ko‘rish uchun, kontent tahlili ilmiy manbalarda takrorlanuvchi rivojlantirish omillarini ajratish uchun, qiyosiy tahlil turli yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash uchun, funksional modellash esa har bir shartni amaliy vosita va kuzatiladigan natija bilan bog‘lash uchun qo‘llanildi. Pedagogik shartni ajratish uchun uchta talab belgilandi: birinchidan, u mediakompetentlik rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi; ikkinchidan, menejerlik kursi doirasida boshqarilishi yoki loyihalanishi mumkin bo‘lishi; uchinchidan, amaliy indikatorlar orqali kuzatilishi zarur.

Andragogik yondashuv tinglovchining mavjud rahbarlik tajribasi, konteksti va mustaqil o‘rganish ehtiyojini hisobga olishni; faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv kompetensiyani real vazifalarni bajarish orqali rivojlantirishni; refleksiv yondashuv esa xato, qaror oqibati va rivojlanish dinamikasini tahlil qilishni nazarda tutadi. Shu metodologik asoslar pedagogik shartlarni oddiy resurslar ro‘yxati emas, balki maqsad, mazmun, faoliyat, muhit, hamkorlik, baholash va transfering izchil tizimi sifatida shakllantirishga imkon berdi.

NATIJARLAR (RESULTS)

Tahlil natijasida menejerlik kurslarida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishni ta‘minlovchi yettita pedagogik shart-sharoit ajratildi. Birinchi shart — boshlang‘ich diagnostika va individual rivojlanish maqsadini belgilash. Direktorlarning tajribasi, hududiy sharoiti, raqamli infratuzilmasi, kommunikativ odatlari va axborotni tahlil qilish darajasi bir xil emas. Shu bois diagnostika tinglovchini qat‘iy toifaga ajratish uchun emas, balki qaysi media boshqaruv vazifalarida rivojlanish ehtiyoji mavjudligini aniqlash va individual topshiriq murakkabligini moslashtirish uchun xizmat qilishi kerak [11].

Ikkinchi shart — mediakompetentlik mazmunini ta‘lim menejmenti vazifalariga integratsiya qilish. Media va axborot savodxonligi alohida nazariy blok bo‘lib qolmasdan, strategik rejalashtirish, ota-onalar bilan hamkorlik, ta‘lim sifati monitoringi, xavfsizlik, inson

resurslarini boshqarish va maktab rivojlanish dasturiga singdiriladi. Bunday integratsiya direktorning media bilimini boshqaruv maqsadi, manfaatdor tomonlar va institutsional javobgarlik bilan bog‘laydi [2].

Uchinchi shart — o‘quv jarayonini real boshqaruv vaziyatlariga asoslangan faol ta’lim sifatida tashkil etish. Media keys, simulyatsiya, vaziyatli rol, loyiha va amaliy mahsulot kompetensiyaning deklarativ emas, faoliyatli shakllanishini ta’minlaydi. Masalan, maktab haqida noto‘g‘ri xabar tarqalishi, ota-onalar guruhida maxfiy ma’lumot oshkor bo‘lishi, pedagogning sun’iy intellekt yaratgan materialdan manbasiz foydalanishi yoki maktab ijtimoiy tarmog‘ida reputatsion xavf yuzaga kelishi kabi vaziyatlarda direktor faktlarni ajratadi, manfaatdor tomonlarni aniqlaydi, huquqiy-etik xavfni baholaydi va kommunikatsiya algoritmini ishlab chiqadi [5].

To‘rtinchi shart — xavfsiz, etik va funksional raqamli ta’lim muhitini yaratish. Kursning o‘zi maktabda kutilayotgan mas’uliyatli media amaliyotiga namuna bo‘lishi lozim. Real hujjatlar va o‘quvchi tasvirlari anonimlashtiriladi, manbalar ko‘rsatiladi, generativ sun’iy intellektidan foydalanish holati oshkor etiladi, shaxsiy ma’lumot va mualliflik huquqiga rioya qilinadi. Raqamli resurslar turli internet tezligi va qurilmaga ega tinglovchilar uchun ochiladigan, texnik jihatdan yengil va mustaqil foydalanishga mos bo‘lishi maqsadga muvofiq [3].

Beshinchi shart — mentorlik va professional hamjamiyat. Mediakompetentlik direktorning individual texnik mahoratidan kengroq bo‘lib, jamoa bilan muvofiqlashtirilgan qarorlarni talab qiladi. Shu sababli tengdosh ekspertizasi, guruh loyihasi, mentor maslahatlari va kursdan keyingi professional hamjamiyat rahbarning qarorini turli nuqtayi nazar bilan tekshirishga yordam beradi. Samarali direktor tayyorlash dasturlarida mentorlik, amaliyotga yaqin topshiriq va davomli qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati alohida qayd etiladi [4; 9].

Oltinchi shart — refleksiv baholash va elektron portfolio orqali rivojlanish dinamikasini kuzatish. Faqat yakuniy test mediakompetentlikning kommunikativ, faoliyatli va etik tarkiblarini to‘liq ochib bermaydi. Shu bois diagnostik topshiriq, media keys, amaliy mahsulot, o‘zini o‘zi baholash, ekspert fikri va portfolio dalillari birgalikda qo‘llanadi. Portfolio tarkibiga tekshirilgan axborot xaritasi, kommunikatsiya matni, media siyosat loyihasi, xavf tahlili va refleksiv yozuv kiritilishi mumkin [10].


Yettinchi shart — kurs natijasini maktab amaliyotiga transfer qilish va tashkiliy qo‘llab-quvvatlash. Tinglovchi kursda yaratgan mahsulotini 30–60 kun ichida o‘z maktabida kichik pilot sifatida sinovdan o‘tkazishi, mas’ullar, resurslar, xavflar va monitoring indikatorlarini belgilashi lozim. Transfer jarayonida maktab jamoasining tayyorgarligi, mavjud reglamentlar, texnik imkoniyat va ota-onalarning kommunikativ odatlari hisobga olinadi. Bu shart kurs natijasini individual bilimdan institutsional amaliyotga aylantiradi [8; 13].

1-jadval.

Menejerlik kurslarida mediakompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

№	Pedagogik shart-sharoit	Asosiy amalga oshirish vositalari	Kuzatiladigan natija
1	Boshlang‘ich diagnostika va individual rivojlanish maqsadi	Kirish testi, media keys, o‘zini o‘zi baholash, individual topshiriq	Ehtiyojga mos individual rivojlanish trayektoriyasi
2	Media mazmunini ta’lim menejmenti vazifalariga integratsiya qilish	Strategik rejalashtirish, kommunikatsiya, xavfsizlik va monitoringga media komponentini singdirish	Media bilimning boshqaruv qaroriga aylanishi
3	Real boshqaruv vaziyatlariga asoslangan faol ta’lim	Media keys, simulyatsiya, loyiha, vaziyatli rol, amaliy mahsulot	Asoslangan, etik va natijador media qarori
4	Xavfsiz, etik va funksional raqamli muhit	Anonimlashtirish, maxfiylik qoidalari, akademik halollik, qulay LMS va resurslar	Mas’uliyatli va inklyuziv raqamli xulq
5	Mentorlik va professional hamjamiyat	Mentor konsultatsiyasi, tengdosh ekspertizasi, guruh loyiha, onlayn hamjamiyat	Hamkorlikda qaror qabul qilish va davomiy qo‘llab-quvvatlash
6	Refleksiv baholash va elektron portfolio	Rubrika, formativ qayta aloqa, portfolio, refleksiv yozuv	Rivojlanish dinamikasi va dalillarga asoslangan o‘zini takomillashtirish
7	Maktab amaliyotiga transfer va tashkiliy qo‘llab-quvvatlash	30–60 kunlik harakat rejasi, kichik pilot, mentor kuzatuv, indikatorlar	Individual natijaning institutsional media amaliyotiga ko‘chishi

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, pedagogik shart-sharoitlar kursning turli elementlarini alohida boshqarishdan ko‘ra, ularni yagona rivojlanish zanjiriga bog‘lashni talab qiladi. Diagnostika individual maqsadni belgilaydi; integrativ mazmun va real keyslar ushbu maqsadni faoliyatga aylantiradi; xavfsiz muhit topshiriqning huquqiy-etik chegaralarini ta’minlaydi; mentorlik va hamjamiyat qarorni ijtimoiy ekspertizadan o‘tkazadi; refleksiv baholash o‘shish dinamikasini ko‘rsatadi; transfer esa kursdagi mahsulotning maktab siyosati va amaliyotiga singishini tekshiradi. Demak, shartlardan birortasining uzilishi umumiy natijaning barqarorligini pasaytiradi.



1-rasm. Pedagogik shart-sharoitlarning o‘zaro bog‘liq rivojlanish mantiqi

1-rasmda pedagogik shart-sharoitlar oddiy chiziqli ro‘yxat sifatida emas, bir-birini kuchaytiruvchi rivojlanish mantiqi sifatida ifodalangan. Boshlang‘ich diagnostikasiz kurs mazmunini individuallashtirish qiyin; integrativ mazmunsiz media topshirig‘i boshqaruv vazifasidan uzilib qoladi; faoliyatli topshiriqsiz nazariy bilim ko‘nikmaga aylanmaydi; xavfsiz va etik muhit bo‘lmasa, kursning o‘zi noto‘g‘ri amaliyotni modellashtirishi mumkin. Xuddi shuningdek, mentorlik va refleksiv baholash bo‘lmasa, tinglovchi o‘z qarorining zaif tomonlarini ko‘rmaydi, transfer va tashkiliy qo‘llab-quvvatlashsiz esa kurs natijasi maktabning barqaror amaliyotiga aylanmaydi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar samarali direktor tayyorlashga doir xalqaro qarashlar bilan mazmunan uyg‘un. Darling-Hammond va hammualliflar rahbarlarning kasbiy rivojlanishida muammoga asoslangan mazmun, real amaliyot, mentorlik va davomli qo‘llab-quvvatlashni muhim omillar sifatida ko‘rsatadi [4]. Mazkur tadqiqotda ushbu yondashuv mediakompetentlik kontekstida media keys, elektron portfolio, maktab media siyosati loyihasi va transfer rejasiga aylantirildi. Shu bilan birga, mediakompetentlikka oid o‘quv

jarayonida huquqiy-etika, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va raqamli xavfsizlik alohida shart sifatida ajratilishi uning ta'lim menejmentiga xos xususiyatini kuchaytiradi.

Pedagogik shartlarning tizimlilikligi uzluksiz monitoring bilan ham bog'liq. M. Axmedov xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda kursgacha, kurs jarayonidagi va kursdan keyingi monitoring bosqichlarini o'zaro bog'lash zarurligini asoslaydi [7]. Ushbu yondashuv menejerlik kursida boshlang'ich diagnostika, formativ qayta aloqa, portfolio va kursdan keyingi transferni bir siklga birlashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada baholash faqat sertifikat olish vositasi bo'lib qolmay, individual rivojlanish trayektoriyasini boshqaruvchi mexanizmga aylanadi.

Tizimning yana bir muhim jihat — mediakompetentlikni shaxsiy savodxonlikdan institutsional boshqaruv natijasiga olib chiqishidir. Maktab direktori o'zi faktchekingni bilishi yetarli emas; u maktabda manbalarni tekshirish amaliyoti, kontentni tasdiqlash tartibi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari va inqirozli kommunikatsiya protokolini shakllantira olishi kerak. Raqamlashtirishga rahbarlik qilish texnologik vosita tanlashdan ko'ra, strategik maqsad, jamoa o'rganishi, resurslar va manfaatdor tomonlarni muvofiqlashtirish bilan bog'liq murakkab tashkiliy jarayon ekani ko'rsatilgan [8]. Shu sababli transfer sharti kursning yakuniy emas, institutsional natijani boshlab beruvchi bosqichi hisoblanadi.

Maqolaning cheklovi shundaki, unda pedagogik shart-sharoitlar nazariy-konseptual tahlil asosida tizimlashtirilgan. Har bir shartning alohida va kombinatsiyalangan ta'sirini aniq miqdoriy baholash uchun tajriba-sinov jarayonida kurs kuzatuvi, portfolio ekspertizasi, mentorlik qaydlari va transfer natijalarini birlamchi ma'lumotlar asosida solishtirish talab etiladi. Biroq ishlab chiqilgan tizim menejerlik kursi dasturi, trener qo'llanmasi va monitoring vositalarini loyihalash uchun operatsion asos beradi.

XULOSA (CONCLUSION)

Tadqiqot natijasida menejerlik kurslarida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning pedagogik samaradorligi yettita o'zaro bog'langan shart-sharoitning uyg'un ishlashiga bog'liqligi asoslandi. Bular: boshlang'ich diagnostika va individual rivojlanish maqsadi; media mazmunining ta'lim menejmenti vazifalariga integratsiyasi; real boshqaruv vaziyatlariga asoslangan faol ta'lim; xavfsiz, etik va funksional raqamli muhit; mentorlik va professional hamjamiyat; refleksiv baholash va elektron portfolio; maktab amaliyotiga transfer hamda tashkiliy qo'llab-quvvatlashdir.

Mazkur shartlar alohida metod yoki resurslar yig'indisi sifatida emas, yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etilganda mediakompetentlik nazariy bilimdan boshqaruv xulqiga, individual natijadan maktabning media siyosati va jamoaviy amaliyotiga ko'chadi. Shu sababli menejerlik kursi samaradorligini tinglovchining kurs yakunidagi test natijasi yoki qoniqish darajasi bilangina emas, balki uning real maktabida shakllangan yangi axborot-tahliliy, kommunikativ, huquqiy-etik va raqamli boshqaruv amaliyotlari bilan baholash maqsadga muvofiq.

Amaliy jihatdan kurs tashkilotchilariga boshlang'ich diagnostika vositasini joriy etish, media va axborot komponentlarini boshqaruv modullariga integratsiya qilish, aktual media keyslar bankini yuritish, trener va mentor rollarini belgilash, elektron portfolio hamda ochiq

baholash rubrikalarini qo‘llash va har bir tinglovchi uchun 30–60 kunlik transfer rejasini majburiy yakuniy mahsulot sifatida belgilash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 681-son Qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-6705811>
2. UNESCO. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. 2nd ed. Paris: UNESCO, 2021. 403 p.
3. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/c74f03de-en.
4. Darling-Hammond L., Wechsler M.E., Levin S., Leung-Gagné M., Tozer S. Developing Effective Principals: What Kind of Learning Matters? Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2022. 100 p. DOI: 10.54300/641.201.
5. Hobbs R. Media Literacy in Action: Questioning the Media. 2nd ed. New York: Bloomsbury Publishing, 2024. 426 p.
6. Begimqulov H.Sh. Malaka oshirish tizimida professional ta’lim pedagog kadrlarining mediakompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 53 b.
7. Axmedov M.U. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda tizimli monitoring bosqichlari // Xalq ta’limi. – 2017. – №3. – B. 88–91. Google Scholar profili: <https://scholar.google.com/citations?user=hswKLwMAAAAJ&hl=ru>
8. Håkansson Lindqvist M., Pettersson F. Digitalization and school leadership: on the complexity of leading for digitalization in school // The International Journal of Information and Learning Technology. 2019. Vol. 36, No. 3. P. 218–230. DOI: 10.1108/IJILT-11-2018-0126.
9. Leithwood K., Harris A., Hopkins D. Seven strong claims about successful school leadership revisited // School Leadership & Management. 2020. Vol. 40, No. 1. P. 5–22. DOI: 10.1080/13632434.2019.1596077.
10. Григорьева И.В. Web-портфолио как средство формирования медиакompetентности будущих педагогов. – Москва: Изд-во Российской академии образования, 2009. – 269 с.
11. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 56 b.
12. Asqarov A.D. Xalq ta’limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 51 b.

5-Iyul, 2026-yil

13. Krawchuk J.S. Relationships Between School Principals’ Perceived Technology Self-Efficacy and the Perceived Ability to Lead Technological Innovation in the COVID-19 Pandemic Era: Ph.D. dissertation. St. John’s University, 2022. URL: https://scholar.stjohns.edu/theses_dissertations/425

